

Xorijiy Til O'qitishda Samarali Usullardan Foydalanish

Mamadayupova Vasila Shonazarovna¹

Anatatsiya: Bugungi kunda xorijiy til, xususan ingliz tilini o'rganishga bo'lgan talabning yuksak darajada ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Bu jarayonda o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kabi nutq faoliyati turlarini mukammal egallash til organish jarayonining ijobjiy natijasini ko'rsatadi. Ushbu maqolada til o'rgatishning samarali usullari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metod, metodika, native speaker, innovatsion texnologiya, texnologiya, harakatlar strategiyasi.

Ma'lumki, ingliz tilini o'qitishda "metod", "metodika" va "texnologiya" terminlari eng asosiy tushunchalar sanalib, ular mohiyatini tavsiflashda xilma-xil yondashuvlar mayjud va ushbu yondashuvlar mutaxassislar o'rtasida baxs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali tushunchalarning aniq ta'rifi shakllantirish mumkin. Muayyan ta'llim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li qo'yilgan maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'llim metodini hosil qiladi. Bugungi kunda ingliz tilini o'rgatishda taklif etilayotgan metodlardan biri – fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga "native speaker", ya'ni til egasining (tashuvchisining) nigohi bilan qaray olishga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rganiladi. Hozirda fundamental metod o'z maqsadini o'zgartirmagan, biroq boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan. Tilni o'rganish jarayonidagi eng muhim omil - uzatilayotgan axborot mazmunining qay darajada to'g'ri ekanligidir.

Respublikamiz ta'llim tizimini isloh qilishda xorijiy tajribalarga asoslangan xalqaro standartlarga mos keluvchi o'quv dasturlari ishlab chiqilishi oliv pedagogik ta'llim tizimini yanada takomillashtirishga asos bo'ldi. Darhaqiqat, O'zbekiston sharoitida milliy mintalitetimiz, urf-odatlarimizni inobatga olgan holda xorijiy tajribalar asosida ta'llim sifatini tubdan isloh qilish davr talabidir. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatimizda "...ta'llim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy qilish asosida oliv ta'llim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish...", kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart - sharoitlarni yaratish, har bir oliv ta'llim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'llim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi va talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish, ularga chet tilidan sifatlari ta'llim bera olish, oliv ta'llim darajasini namunali bosqichga olib chiqish va tubdan takomillashtirish asosiy vazifalar sifatida belgilandi.

Ta'llim jarayonida saralangan ya'ni mavzuga, til o'rganuvchining yoshi, bilim tajribasi, dunyoqarashini hisobga olgan holda tanlangan zamonaviy axborot va zamonaviy innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish orqali ta'llim sifati va samaradorligini oshirishga erishiladi. Texnologik vositalardan foydalanish ingliz tili o'rganishning o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish kabi faoliyat turlarini egallashda qo'l keladi. Masalan, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishni kompyuter, smartbord, playerlar yordamisiz tasavvur qilish qiyin. Ma'lumki, tinglab tushunish jarayoni til o'rganishning eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, bunda talaba bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi hamda uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi.

Xorijiy tilni zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng qulay usullardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayondagi muhim omillaridan biri esa – til o'rgatuvchi va til o'rganuvchining axborot - kommunikatsion texnologiyalarga oid bilimga ega bo'lismidir. Ingliz tilini o'rganish jarayonida, jumladan, kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi-talaba ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmarni tomosha qiladi, tinglab-tushunishga harakat qiladi. Bu texnik vositalardan foydalanish talabalarga tilni autentik materiallarni orqali o'rganish imkoniyatini beradi, til o'rganuvchi tilni katta qiziqish bilan o'rganadi. Bu bilan ingliz tilini o'rganish jarayoni qiziqarliroq va samaraliroq bo'lishi ta'minlanadi.

Endi til o'rgatish jarayonining ajralmas qismi – o'zin xususida qisqacha to'xtalib o'tsak. O'zin til o'rganishdagi eng qulay vositalardan biri hisoblanadi. Uning afzalligi shundaki, u til o'rganuvchidagi kognitiv jarayonni ta'minlaydi, og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, shaxsning ijtimoiylashuviga olib keladi. O'zin orqali xilma-xil interaktiv usullardan foydalaniladi. Bugungi kunda ta'llim maskanlarida interfaol o'yinlar orqali dars o'tish an'anaga aylanib bormoqda. Ma'lumki, darsning turli xil o'yinlar asosida o'tilishi o'quvchi-talabalarning o'z imkoniyatlarini, iqtidorini namoyish etishini, diqqatni jamlash, bilim va ko'nikmalarini oson va quvnoq yo'lida oshirishlarini ta'minlaydi. O'zin

¹ TDYU, Xorijiy tillar kafedrasи katta o'qituvchisi

faoliyatining psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilishi, hayotda barqaror o'rmini topishi, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholash, o'z-o'ziga ishonch hissini rivojlantirish imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiyligini qabul qilingan ta'limga prinsiplari, taktikasi aks etadi. Mashg'ulotda talaba oddiy darsga qaraganda yanada kuchli qiziqish bilan yondashadi va erkin faoliyat ko'rsatadi.

Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri - talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda til o'rgatish jarayonida AQSH, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda qator innovatsion metodlardan foydalanib kelinmoqda. Ulardan biri "Muammoli vaziyat yechimi" (Creative Problem Solving) bo'lib, unda asosan hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi; "Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) usulida esa tinglovchilarga topishmoqlar havola etiladi va unda tinglovchilar notanish so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. "Tezkor javob" (Quick answers) usuli o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. "Hikoya zanjiri" (a chain story) usuli esa o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga yordam beradi. "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ham ancha qulay bo'lib, talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

Shuningdek til o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan ommabop usullardan biri – test -sinovi o'tkazilishidir. Qisqa davr mobaynida til o'rganuvchilar nutq ko'nikma va malakalarini nazorat qilishda bu usulning qulayligidan uning tez va keng tarqalish sababini payqab olish mumkin. Testlarning odatda eksperiment oldidan va undan keyin o'tkazilishi amaliyotda sinab ko'rilib. Tajriba-sinovdagagi ilmiy farazning tasdiqlanish-tasdiqlanmasligida testning ahamiyati benihoyat kattadir. Test texnika vositalari bilan yoki bosma materialni oddiy qo'llash bilan o'tkaziladi. Navbatdagi tahliltalab yordamchi tadqiqot metodlaridan yana biri — xronometrajdir. Til o'rganishga yoki ayrim nutq birliklarini o'zlashtirishga sanflanadigan vaqt o'lchami xronometraj sanaladi. Uni tadqiqot dasturiga binoan turli usullar bilan o'tkazish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har bir innovatsion texnologiyani o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu usullarning barchasida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlik, tinglovchining ta'limga jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Talabada til o'rganishga bo'lgan kuchli qiziqish va xohish uygonadi, darslarga puxta hozirlik ko'rish va o'z harakatini samarasini ko'rishga intilishi kuzatiladi. Bu esa ta'limga jarayonidagi maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida / O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Jalolov J.J., Makhamova G.T., Mamadayupova V.Sh., L.Ismatova Ingliz tili o'rgatish texnologiyasi. -Tashkent, 2010.- 96 b.
3. Tojiboeva D. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: «Fan va texnologiya», 2007.
4. N. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. "Ingliz tili darlarida qo'llaniladigon interfaol usullar" (uslubiy qo'llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
5. M. Xoldorova, N. Fayziyeva, F. Rixsittilayeva. "Chet tilini o'qitishda yordamchi vositalardan foydalanish". Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.